

Yuridik maqomga ega byudjet ist'molchilari uchun elektr ta'minoti

SHARTNOMASI

2022 yil.01.01 340019 son Buvayda tumani

Buvayda tumani elektr ta'minoti korxonasi rahbari Isaqov Xandamjon Abdujabborovich

Buvayda tuman elektr ta'minoti korxonasi rahbari Isaqov Xandamjon Abdujabborovich

keyingi o'rinlarda «Korxonaga» deb ataladi) bir tomondan hamda Sizning asosida

faoliyat yurituvchi Xotin-Jarjona DTP

(Iste'molchining nomi)

rahbari A. Hamroyevlar (keyingi o'rinlarda

(Iste'molchi rahbarining F.I.SH)

--	--	--	--	--	--

«Iste'molchi» deb ataladi), hisob raqami- ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu Shartnomaga muvofiq, Korxonaga Iste'molchiga elektr energiyasini (keyingi o'rinlarda — energiya deb ataladi) ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va Iste'molchi iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. YETKAZIB BERILGAN ENERGIYANI HISOBGA OLISH

2.1. Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

aktiv kVt.s., reaktiv kVar.s. ni tashkil etadi.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning Shartnoma tuzilgan kundagi umumiy narxi 450 so'mni, ktrif bo'yicha

(tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki 08.11.2017 y.dagi PQ-3379-sonli qarorda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun tasdiqlangan tarif (karakteristika yozilgan) ni tashkil etadi.

2.3. Iste'molchiga yetkazib beriladigan energiyaning oylar kesimidagi yillik hajmi ushbu Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

2.4. Iste'molchi tomonidan olingan energiyaning haq to'lanadigan haqiqiy miqdori ushbu Shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

III. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Energiya uchun hisob-kitoblar tabaqalashtirilgan, bir stavkali tarif yoki 08.11.2017 y.dagi PQ-3379-sonli qarorla tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun tasdiqlangan tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan Iste'molchi bilan (byudjet tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos

stansiyalari, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirilgan nasos stansiyalari bundan mustasno) hisob-kitob qilishda sutka vaqtlari bo'yicha tabaqalashtirilgan tarif qo'llaniladi.

Tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar sutkaning quyidagi davrlarida foydalanilgan energiya uchun:

yarim tig'iz davr - sutkaning yorug' vaqti (9-00 dan 17-00 gacha) - belgilangan tarif bo'yicha; tig'iz davr - ertalabki va kechki «eng katta miqdor» (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarda: ertalabki «eng katta miqdor» - 6-00 dan 9-00 gacha, kechki «eng katta miqdor» - 17-00 dan 22-00 gacha) - belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsiyentni ko'llash bo'yicha;

tungi davr - sutkaning qorong'i vaqti (eng kam yuklamali soatlarda: 22-00 dan 24-00 gacha va 00-00 dan 06-00 gacha) - belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda kamayuvchi koeffitsiyentni ko'llash bo'yicha amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II tarif guruhli iste'molchilar uchun bir stavkali tarifga mos keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitob qilishga mo'ljallanmagan iste'molchilar bilan hisob-kitob qilishda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Ulangan quvvati 750 kVA gacha bo'lgan, elektr energiyasini realizatsiya qilishda narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxatida nazarda tutilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar bilan hisob-kitob qilishda Hukumat qarori bilan belgilangan tarif qo'llaniladi.

3.3. Mazkur shartnoma bo'yicha Iste'molchi hamda Korxonaga o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar uchun hisob-kitob qilish davri bir oy sanaladi.

3.4. Iste'molchi hisob-kitob davri tugagandan so'ng, Xiududiy elektr korxanasining (keyingi o'rinlarda "Korxonaga" deb ataladi) vokolatli shaxsi bilan birgalikda hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini yozib oladi va mazkur shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi to'g'risida hisobot tuzadi.

Iste'mol qilingan energiyaning haqiqiy hajmini aniqlash uchun asos bo'lib, Iste'molchi tomondan xar o'ynining 25-sanasidan 30-sanagacha bo'lgan muddatda hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga o'z qo'lli bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali belgilangan shaklda taqdim etilgan energiya sarfi to'g'risidagi hisobot samaladi.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori bo'lgan quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha to'lovni amalga oshirayotgan iste'molchi energiya sarfi haqidagi hisobotida to'liq iste'mol qilingan energiya hajmini (aktiv va reaktiv) tashqari tig'iz, yarim tig'iz hamda tungi davrlarda iste'mol qilingan hajmlarni ham alohida ko'rsatib o'tishi lozim.

3.5. Tariflar o'zgarganda, Iste'molchi yetkazib berilayotgan energiya uchun to'lovni yangi tarif bo'yicha, ular kuchiga kurgan kundan boshlab amalga oshiriladi.

3.6. Iste'molchiga energiya yetkazib berish, u tomondan kelgusi hisob-kitob davri boshlangunga qadar shartnomaviy miqdor qiymatining 100 foizini (100%) oldirdan to'lagandan so'ng amalga oshiriladi.

3.7. Korxonaga energiya sarfi to'g'risidagi hisobot asosida belgilangan tarihdagi hisob-kitobni amalga oshiradi hamda hisob-faktura va to'lov uchun hisob-yarat'ini besh kun mobaynida yozib beradi.

Iste'molchi turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyektiga ega bo'lsa, har bir tarif guruhli uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi.

3.8. Hisobga olish pribori ushbu Shartnomaga 4-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansini bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmoq'ining mansublik balansini

chegarasida o'rnatilmagan, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchashtada energiyaning texnologik sarflanish hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu Shartnomaga 5-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi.

Bunda 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, taqablashirilgan tartibda to'lovlarini amalga oshiradigan iste'molchi uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan energiya hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib beriladi.

3.9. Iste'molchi energiyani sarflanishi to'g'risidagi hisobotni Shartnomada ko'rsatilgan muddatda taqdim etmagan taqdirda, Korxonaga energiya iste'molining shartnomada qayd etilgan miqdori bo'yicha yoki o'tgan davr uchun haqiqatdan iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lov hisob-varag'ini yozadi va Iste'molchining shaxsiy hisob raqamida bu haqida tegishli belgi qo'yiladi.

Korxonaga vakillari hisoblash priboridan ko'rsatkichlarni nazorat tartibida yozib olgandan keyin Korxonaga belgilangan tartibda amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi.

3.10. Iste'molchining energiya haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi tartifiga ustamalar, shuningdek, hisobga olinmagan energiyani qayta hisob-kitob qilish va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

Iste'molchi yetkazib berilgan energiya uchun o'z vaqtida xaq to'lamasa, Korxonaga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun to'lov summasi 0,1 foizi (Energia maxsus tartibda yetkazib beriluvchi iste'molchilar 0,2 foiz) miqdorida, lekin muddati o'tkazib yuborilgan summamning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda qayta to'laydi.

Iste'molchining aybi bilan energiya Shartnomada ko'rsatilgan hajmda to'liq iste'mol qilinmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.11. Shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya olinganda, Iste'molchidan Shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha olingan energiya jami hajmi uchun belgilangan tarifning bir yarim baravari miqdorida to'lov undiriladi.

3.12. Iste'molchi Korxonaga bilan birgalikda har oyda, hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.13. Iste'molchini tarmoqdan uzib qo'yish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Shartnomaga majburiyatlari bajarilmaganda;
hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan energiya uchun qarzdorlik mavjud bo'lganda;

Korxonaga talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan uning vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olish uchun ruxsat etilmaganda;

hisobga olish priborlari qasddan buzilganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ulashning ishlashiga to'sqinlik qiladigan xatti-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj qilish yoki Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda.

3.14. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob Iste'molchini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

3.15. Iste'molchi tarmoqqa uning tomonidan qoidabuzarlik holati bartaraf etilib, mavjud qarzdorlik va to'lov jayridagi eng kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida

5

to'lov undirilgandan so'ng qayta ulanadi (ENHATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno).

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:
o'z elektr qurilmalarini Korxonaga elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lgan elektr energiyasini olish;
elektr energiyasi yetkazib berilishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

Korxonaga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning Shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin 10 kundan kechikmay (joriy oy tugaguncha) berilishi lozim;

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilishi oqibatida yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplatish;

shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

shartnomaga bekor qilinganda foydalanilmagan energiya miqdori uchun to'langan summamni qaytarishni talab qilish;

energiya yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minoti shartnomalarini tuzish va bajarishda yuzaga keladigan nizolarni hal etish uchun sudga yoki bo'yisunuvchi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya etish;

foydalanilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ekspluatatsiya qilayotgan elektr tarmoqlari, priborlar, elektr qurilmalarining zarur texnik holatini saqlash, shuningdek, elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, Korxonaga elektr uskunalarning nosozligi to'g'risida xabar berish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Korxonaga va elektr energetika sohasidagi davlat nazorati organining yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalarini talablarini bajarish;

Korxonaga vakillarining hisobga olish priborlarini ko'zdan kechirishiga belgilangan tartibda ruxsat berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin energiyani zarur miqdori uchun Korxonaga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda energiyani elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlari, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish.

Shuningdek, 5 MVt va undan yuqori quvvatga ulangan iste'molchi:

iste'mol qilmayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori,

6

energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi,

energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har daqiqadagi sarfini hisobga olish va Korxonaga talabga ko'ra xabar qilishi shart.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.3. Korxonaga quyidagi huquqlarga ega:

Iste'molchidan Shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini bajarishini talab etish;

ushbu shartnomaga shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda Iste'molchi tomonidan belgilangan tartibda yetkazilgan haqiqiy zararni qoplatish;

avariya rejimida Byuroni xabardor qilgan holda iste'molchini elektr tarmoqlaridan uzishi;
Ko'rsatmalarga asosan hamda EHNATga ulangan yoki energiyaga oldindan haq to'lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo'lgan iste'molchini oldindan to'langan haq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Korxonalar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Korxonalar mazkur shartnomada nazarda tutilgan holatlarda iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish qo'zg'atish uchun javobgar bo'lmaydilar.

4.4. Korxonalar quyidagilarga majbur:

Iste'molchilarga energiyani elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining talans bo'yicha mansublik bo'yicha taqsimlashda Shartnomada ko'rsatilgan hajrda uzluksiz yetkazib berish.

uskunalar, elektr uzatish liniyalari, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr ho'jaligi obyektidagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr ho'jaligi obyektlarini rejalashtirish bilan bog'liq elektr ta'minotidagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida uch yil davomida kechikmasdan ogohlantirish;

Iste'molchini elektr energiyasini yetkazib berishdagi uzilishlar va ularning sabablari to'g'risida xabardor qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida cheklashlarni hajmi va vaqti ko'rsatilgan holda oldindan xabar berish;

Iste'molchining elektr energiyasi to'liq yetkazib berilganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa qoida buzilishlar to'g'risidagi arizalarini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechikmay ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

Iste'molchiga yetkazib berilgan energiya hisobini o'rnatilgan tartibda yuritish;

Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq, besh kun muddatda elektr energiyasining oylilik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylilik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda — iste'molchiga bu haqida rad etish sababini ko'rsatgan holda xabar qilish;

Iste'molchining o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni, shuningdek, Byuro bilan birga plombalashni ta'minlash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartiga muvofiq bo'lgan elektr energiyasini yetkazib berish.

Korxonalar qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan holdalarda, Korxonalar buning natijasida yetkazilgan zararni qoplashga, iste'molchi esa yetkazilgan real zararni qoplashga majbur.

5.2. Korxonalar:

iste'molchi elektr energiyasi iste'molning belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonalar tomonidan belgilangan elektr energiyasi iste'molini cheklash jadvallari bajarilmaganda, past sifatlilik elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manba'i avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda tez-tez o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun iste'molchi oldidagi moddiy javobgar bo'lmaydi.

5.3. Korxonalar - Elektr energiyasidan uzilganda yoki yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yuzaga kelganda (for's-majors) iste'molchi oldida javobgar bo'lmaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'lmaganda, ular sud tartibida hal qilinadi.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

6.1. Shartnomalar 2022 yil 31.12 gacha bo'lgan muddatga tuziladi. Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar joriy o'zgarishlar sifatida qabul etilmasdan, kelgusi oydan kuchga kiradi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnomalar keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

6.2. Mazkur Shartnomalar bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanadigan ikki nusxada tuzildi. Shartnomaning ilovalari uning ajratilmas qismi hisoblanadi.

6.3. Shartnomalar tomonlardan birining tashabbusi bilan muddatidan oldin ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan 30 kun oldin xabardor qilgan holda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabar nomma yozma ravishda yuboriladi.

6.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatlilik shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

VII. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Iste'molchi:

Pochta manzili: Boqolobod tumani Separobod q. q. q.
 Hisob raqami: 1000 118003 011270 44405170001
 Bank kodi (MFO): 00014 (INN) 204869789
 Iste'molchining yuridik manzili bo'yicha kadastr raqami
 Mahallaning nomlamishi: 1000 118 60 5011270 44405170001
Respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan Iste'molchilar uchun:
 Byudjet fondining hisob raqami: 00014 (INN) 204869789
 Byudjet fondining hisob raqami: 13402 000300 100 001010
 Bank kodi (MFO): 00014 (INN) 204869789
 Telefonlar: _____ Faks: _____

(Iste'molchi, shu jumladan uning rahbarini uyali telefoni ko'rsatiladi)

Statistik kodlar:

OKED: 22100
 SOOGU: 08444
 SOATO: _____
 KFS: _____
 KOPF: _____
 OKPO: _____

Korxonasi:

Pochta manzili: Buyayda tuman, Yangiqo'rg'on qishlog'i, Bog'i Eram ko'chasi 69-uy
 Hisob raqami: 22636000300215289454
 Bank kodi (MFO): 00494 (INN) 200 144 930
 Telefonlar: 244-28-03 Faks: 244-38-21
 Statistik kodlar:
 SOOGU: 1013
 SOATO: 1730212

Korxonasi vakili: X. Voznegorlov Iste'molchi:

M.O., imzo, lavozimi, F.I.O., imzo, lavozimi, F.I.O.

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida asosida xuquqiy ekspertiza qilib shartnoma loyixasining qonunchilik xujjatlarga mos kelishini aniqladim.
 Shu sababli ushbu shartnomani imzolasa bo'ladi.

A.A. Dehqonov

Yetkazib beriladigan energiya HAJMI

1. Tarif guruhi _____
2. Faoliyat turi _____
3. Iste'molchi elektr qurilmalarining ulangan quvvati: _____ kVA (kVt)
4. Elektr ta'minotining ishonchligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) _____
5. Hisob-kitob turi: _____

tarif turi: taqalashdirilgan, bir stavkali yoki 08.11.2017 y.dagi PQ-3379-sonli qarorda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrum xizmatlar ko'rsatuvchi iste'molchilar uchun tasdiqlangan tarif (keraklisi yozilsin)

Yil, jami	Energiya hajmi ming kVt.s	Shu jumladan, tarif guruhlari bo'yicha
Yanvar	6882	
Fevral	3333	
Mart	2222	
April		
May		
Iyun		
Iyul		
Avgust		
Sentabr		
Oktabr		
Noyabr		
Dekabr		

Korxonasi bir kundalik _____ soat, bir oyda _____ kun ishlaydi.
 Smenalar bo'yicha yuklama nisbati % da, I _____ II _____ III _____ ni tashkil qiladi.

Korxonasi vakili:

Iste'molchi:

X. Voznegorlov
 BUNDOV TUMAN AKSHADORLIK JAMIYATI KORKONASI
 (Sana, F.I.O., imzo, lavozimi, F.I.O., imzo)

**Energiyani hisobga olish priborlari
O'RNATILGAN JOYLAR VA ULARNING TAVSIFLARI**

Iste'molchi ning(subist e'molchi- ning) hisobga olish pribori o'rnatilgan	Hisobga olish pribori turi (aktiv, reaktiv), (nominal toki)	Hisobga olish pribori raqami	Hisobga olish pribori klemma qopqog'idagi plombaning		O'Ichov transformatori arining transformatsiy a koeffitsiyenti		Hisob- kitob koeffit siyenti	Hisobga olish priborinin g shartnoma tuzilgan kundagi ko'rsatkic hlari	Tarif turi summa/ 1 kVt.s.
			Korxo- na- ning	Byuro -ning	Tok	Kuchi anish			

Iste'molchi:

A. Hamroyevlar
M.O. Imzo

Imzolar:

Korxonasi:

X. Uvaybov
M.O. Imzo



M.O. Imzo



Tomonlar elektr tarmoqlarining balans mansubligi va ekspluatatsiya qilish bo'yicha mas'ullik chegarasi DALOLATNOMASI

1. Iste'molchining balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

- a) havo liniyalari _____
- b) kabel liniyalari _____

v) podstansiyalar, transformator podstansiyalari _____

2. Iste'molchi va Korxonasi o'rtasida elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasi: / / KVli _____ n-si 10 KVli _____ XUL uzatmasi _____

3. Ulardan quyidagilarga:

- a) _____
- b) _____ xizmatlar iste'molchi xodimlari tomonidan;

Iste'molchi bilan tuzilgan Shartnoma asosida elektr ta'minchi korxonasi xodimlari tomonidan ko'rsatiladi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik chegarasi quyidagicha belgilandi: / / KVli _____ n-s. 10 KVli _____ XUL uzatmasi _____

Iste'molchi

Vakillar:

A. Hamroyevlar
M.O. (imzo)

Korxonasi

X. Uvaybov
M.O. (imzo)



M.O. (imzo)

M.O. (imzo)



**Energiyani yo'qotishlarini aniqlash
DALOLATNOMASI**

Energiyani hisobga olish priborlari elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi chegarasi hisobga olingan holda mansublik chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkada hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan energiya yo'qotishlari quyidagilar hisoblanadi:

a) Quvvati _____ kVA bo'lgan transformatorlardagi oylik aktiv energiyani yo'qotish _____ kVt.soat yoki _____ foizni, reaktiv energiyani yo'qotish _____ kVAR.soat yoki _____ foizni tashkil etadi;

b) Iste'molchining kabel liniyalaridagi har oylik energiyani yo'qotish:

Uzunligi _____ m;
Kesimi _____ mm²;
Rusumi _____
Kuchlanishi _____ kV, bulsa, _____ kVt.soatni yoki _____ foizni tashkil etadi;

v) Iste'molchining havo liniyalaridagi har oylik energiya yo'qotishlari:

Uzunligi _____ m;
Kesimi _____ mm²;
Rusumi _____
Kuchlanishi _____ kV, bulsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ foizni tashkil etadi;

Energiyani har oyda jami yo'qotishlar hajmi hisob davridagi energiya sarfining _____ foizini tashkil etadi.

Korxonaning elektr tarmoqlari va uylarning ichki elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasidan umumiy mulk hisoblanadigan ushbu tarmoqlardan ta'minlanadigan maishiy iste'molchilarning elektr energiyasini hisobga olish asboblari bo'lgan elektr tarmoqlaridagi elektr energiyasi yo'qotishlari hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi va uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari iste'moliga qaratiladi.

Imzolar:

Iste'molchi:

A. Hamrayev

(M.O. Imzo)

